



AMIR TEMUR MAQBARASINING ME'MORIY TUZILISHI VA UNING MARKAZIY OSIYO KOSHINCHILIK SAN'ATIDAGI AHAMIYATI

*Samarqand davlat pedagogika instituti ijtimoiy fanlar fakulteti tarix
yo'nalishi talabasi **Raximova Dilmurod Qodirjon qizi***

draximova919@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob durdonasi — Amir Temur maqbarasi (Go'ri Amir)ning barpo etilish tarixi va shakllanish bosqichlari yoritilgan. Maqola davomida 1403-yilda Muhammad Sultonning to'satdan vafot etishi, uning xotirasiga atab sakkiz yoqli binoning qurilishi hamda keyinchalik Mirzo Ulug'bek davrida maqbaraning to'liq yakunlanishi bilan bog'liq tarixiy tafsilotlar tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar:

Amir Temur maqbarasi, Go'ri Amir, Muhammad Sulton, Mirzo Ulug'bek, Samarqand, sakkiz yoqli bino, daxma, Temuriylar davri me'morchiligi

Kirish

Amir Temur maqbarasi Markaziy Osiyo me'morchiligining noyob asari sifatida e'tirof etilgan. Maqbara qurilishi buyuk Sohibqiron Amir Temur tomonidan 1404-yilda boshlanib, Mirzo Ulug'bek davrida tugallangan. Xosh, Amir Temur maqbarasi nima sababdan qurilgan va unda kimlar dafn etilgan?

Muhammad Sulton 1403-yilda Kichik Osiyoda bo'lgan harbiy yurish vaqtida to'satdan kasallikdan vafot etgan. Shahzodaning jasi Samarqandga olib kelinib, ansamblning janub tomondagi ayvoni orqasidagi daxmaga dafn qilinadi. So'ng Amir Temur Xarrotani atab maqbara qurish haqida farmon beradi.

Shundan keyin daxma ustiga sakkiz yoqli bino quriladi. Shu tariqa Amir Temur maqbarasi qurildi.¹

Asosiy qism



Amir Temur vafotidan keyin Shohrux Mirzo Hirotni poytaxt qilib, o'g'li Mirzo Ulug'bekni esa Samarqandga hokim etib tayinlaydi. U mamlakatda madaniyat va qurilish ishlarini rivojlantirib yuboradi. Mirzo Ulug'bek buyuk bobosiga xurmat yuzasidan ushbu sakkiz burchakli maqbarani temuriylar sulolasi dafn etiladigan maqbaraga aylantiradi.

Maqbara bitgach, Amir Temurning ma'naviy ustoz Mir Said Barakaning jasadi shu maqbaraga ko'chiriladi va Sohibqironning bosh tomoniga dafn etiladi. Rivoyatlarga ko'ra, Amir Temur o'zini pirining oyoq tomoniga dafn qilinishini vasiyat qilgan. Maqbaraga Mironshoh Mirzo, Shohrux Mirzo, Shayx Sayid Umar, Mirzo Ulug'bek va Ulug'bekning go'dakligida vafot etgan ikki farzandi — Abdulloh va Abdurahmonlar ham dafn etilgan.

Maqbaradagi qurilish va obodonlashtirish ishlari Ulug'bek hukmronligi bilan bog'liq. U tomonidan binoning ichi yangidan bezatildi, maqbara sahniga daxmalar qo'yilib, atrofiga nafis marmar toshdan va panjara qilindi. Aynan Ulug'bek davridan boshlab maqbaraga uning sharq tomoniga taqab qurilgan ko'p gumbazli galereya orqali kiriladi.

Maqbaraning g'arb va janub tomonlari yondosh qilib qurila boshlagan, lekin bitmay qolgan ulkan imoratlarning tiklanishi Mirzo Ulug'bek hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelsa kerak.²

Rossiya imperiyasi istilosi yillarida maqbara darvozalaridan o'g'rilab ketilgan. Amir Temur maqbarasining darvozalaridan biri Londonda, yana biri

2 Shuhrat Qulmatov, Amiriddin Berdimuhamedov Samarqand yodgorliklari Samarqand -2017

1 1

.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Ermitajda saqlanmoqda. Amir Temurga tegishli bo'lgan uzuk esa Amerikadagi "Metropolitan" muzeyida saqlanmoqda.



Ha aytgancha maqbara yaqinida Muhammad Sulton madrasasi ham bor va hozirda sharq tomondagi devor ortidan madrasaning qoldiqlari ko‘rinib turadi. Chorsu hovlisining atrofiga ikki qavatli xujralar qurilgan.

Maqbaraning o‘rtasida joylashgan sag‘analar ustida temuriylarga bag‘ishlangan yozuvli toshlar bor. Shular orasida Amir Temurning qabri ustiga qo‘yilgan to‘q yashil rangli nefrit tosh diqqatni o‘ziga jalb etadi. Mirzo Ulug‘bek 1425-yilda mo‘g‘ullar ustidan g‘alaba qozonganda ushbu hududlardan ikki bo‘lak nefrit toshini Samarqandga olib kelib, unga mohir ustalar yordamida ishlov berib, barcha musulmonchilik talablarini amalga oshirib, cheksiz hurmat va ehtirom bildirib Amir Temur qabri ustiga qo‘ydirgan.

Rossiya imperiyasi istilosi davrida maqbaradagi ko‘plab noyob jihozlar kabi Mirzo Ulug‘bek davrida maqbaraga kirish uchun qurilgan eshikning yon va tepalari nafis bezatilgan. Yolg‘on eshik tepasida: „Bu shavkatli Amir Temur qabri...“ deb yozilgan koshinli lavha ham olib ketilgan va hozirda Sankt-Peterburgdagi Davlat Ermitajida saqlanadi. Maqbara g‘oyatda nafis bezatilgan. Devorning pastki qismida ko‘kimtir shaffof oniks toshidan ishlangan izora bor. Oniksning choklari ko‘kimtir toshlar terib bezatilgan.³

1740-yilda Eron shohi Nodirshoh Buxoro xonligini zabt etganda Amir Temur qabri ustidagi toshni Mashhadga olib ketgan va ko‘p o‘tmay yana joyiga qaytarib keltirib qo‘ygan. Mustaqillik yillarida ko‘plab tarixiy obidalar qatori Amir Temur maqbarasi ham 1994–1995-yillarda ta‘mirlandi va hozirda o‘lkamizning ko‘plab sayyohlar tashrif buyuradigan obyektlaridan biri.⁴

Xulosa:

4 Samarqand viloyati rasmiy sayti, 2013-02-18da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2013-01-15

3 Герасимова, К. Герасимова Михаил Герасимов: Издательство: М.: , с.. Я ищуща лица. О

восстановлении внешнего облика исторических лиц. М.: Наука, 2007 — 37—38-бет.



Amir Temur maqbarasi (Go'ri Amir) shunchaki me'moriy bino emas, balki Markaziy Osiyo xalqlarining boy tarixi, yuksak muhandislik va koshinchilik san'ati ramzidir. Muhammad Sulton xotirasiga asos solinib, keyinchalik Sohibqiron va temuriylar sulolasining bosh xilxonasiga aylangan ushbu koshona Mirzo Ulug'bek davrida o'zining mukammal shakliga ega bo'ldi. Maqbaraning unikal tuzilishi, nodir nefrit va oniks toshlari hamda undagi yozuvlar temuriylar davri madaniyatining yuksak darajasini ko'rsatadi.

Tarix mobaynida turli bosqin va talonchiliklar, xususan, Eron shohi Nodirshoh yurishi hamda Rossiya imperiyasi istilosi natijasida maqbaradagi ko'plab noyob ashyolar, darvoza va koshinlar xorijiy muzeylarga olib ketilgan bo'lsa-da, obida o'zining salobatini yo'qotmadi. Mustaqillik yillarida olib borilgan keng ko'lamli ta'mirlash ishlari natijasida maqbara o'zining tarixiy ko'rkini qayta tikladi va bugungi kunda dunyo sayyohlarini hayratga solib kelayotgan muhim madaniy meros obyekti bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 2.Samarqand viloyati rasmiy sayti, 2013-02-18da asl nusxadan arxivlandi, qaraldi: 2013-01-15
3. М. Герасимова, К. Герасимова Михаил Герасимов: Издательство: М.: , с.. Я ищущу лица. О восстановлении внешнего облика исторических лиц. М.: Наука, 2007 — 37—38-bet.
4. Shuhrat Qulmatov, Amiriddin Bekturodov "Samarqand yodgorliklari" Samarqand -2017